

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2020.T.111.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

JURAYEV BAXODIR BOTIROVICH

**KARTOSHKKA KOVLAGICHNING ELAKLASH ISHCHI ORGANINI
TAKOMILLASHTIRISH VA PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va
melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Qarshi – 2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundariyasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of
philosophy (PhD) on technical sciences**

Jurayev Baxodir Botirovich

Kartoshka kovlagichning elaklash ishchi organini takomillashtirish va parametrlarini asoslash..... 3

Жураев Бахадир Ботирович

Совершенствование и обоснование параметров сепарирующего рабочего органа картофелекопателя..... 21

Juraev Bakhodir Botirovich

Improvement and justification of the parameters of the separating working element of a potato digger..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 43

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2020.T.111.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

JURAYEV BAXODIR BOTIROVICH

**KARTOSHKVA KOVLAGICHNING ELAKLASH ISHCHI ORGANINI
TAKOMILLASHTIRISH VA PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va
melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Qarshi – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/T4935 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.qmii.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Norchayev Davron Rustamovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Jo'rayev Fazliddin O'rinovich
texnika fanlari doktori, professor

Irgashev Dilmurod Begmurodovich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti huzuridagi PhD.03/30.06.2020.T.111.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «26» mart soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180100, Qarshi sh., Mustaqillik shox ko'chasi, 225-uy. Tel.: (+99875) 221-09-23, faks: (+99875) 224-13-95, e-mail: qmii@qmii.uz).

Dissertatsiya bilan Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (140 -raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180100, Qarshi sh., Mustaqillik shox ko'chasi, 225-uy. Tel.: (+99875) 221-09-23, faks: (+99875) 224-13-95, e-mail: qmii@qmii.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «10» mart kuni tarqatildi.

(2025-yil «10» mart dagi №12 raqamli reyestr bayonnomasi).



F.M. Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, t.f.d., professor

D.Sh. Chuyanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, t.f.d., professor

E.U. Eshdavlatov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, t.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati. Insonlar uchun asosiy oziq-ovqat mahsulotlaridan biri bu - kartoshka hisoblanadi. Dunyoda aholi sonining ko‘payib borishi oziq-ovqat mahsulotlari bilan birga, kartoshkaga bo‘lgan talabni ham oshirmoqda. Natijada, kartoshkani yig‘ishtirib olishda ish unumi yuqori energiya-resurstejamkor bo‘lgan mashinalarni amaliyotga qo‘llash yetakchi o‘rinlardan birini egallab kelmoqda. “BMT Oziq ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkilotining 2022-yil 30-maydagi hisobotiga ko‘ra, 2020-yilda kartoshka dunyoning 150 ta mamlakatida 20 mln ga dan ortiq yer maydonida ekilgani, yillik 359 mln. tonna hosil olinganini, kartoshka ishlab chiqarishni 2025-yilgacha 500 mln. tonna, 2030-yilgacha 750 mln. tonnaga yetkazish rejalashtirilayotganligini”¹ hisobga olsak, kartoshka yig‘ishtirib olishni ta‘minlaydigan yonilg‘i sarfi kam, ish unumi va ish sifati yuqori, energiya-resurstejamkor texnik vositalar va qurollarni ishlab chiqarishga joriy etish zaruriyati paydo bo‘ladi. Shundan kelib chiqib, texnik va texnologik jihatdan takomillashtirilgan, energiya va rusurstejamkor bo‘lgan, kartoshka tugunagini tuproqdan sifatli ajratib olishni ta‘minlaydigan mashinalarni ishlab chiqarishni o‘zlashtirish va ulardan kartoshka yig‘ishtirishda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda kartoshkani kam shkastlaydigan, yuqori samaradorlikka ega, tuproq-iqlim sharoitni hisobga olib, kartoshka hosilini yig‘ishtirib olishda resurstejamkor usullar va texnik vositalarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, kartoshka yig‘ishtirib olish usullarini takomillashtirish, kartoshka yig‘ishtirishni amalga oshirishda foydalaniladigan samaradorligi yuqori ish organli mashinalarni ishlab chiqish, ularning texnologik ish jarayoni va parametrlarini asoslashga katta e‘tibor qaratilmoqda.

“Innovatsion va resurs tejamkor texnologiyalar asosida yaxlit maydonlarda iste‘mol va urug‘lik kartoshka yetishtirish hamda sohada qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish, qishloq xo‘jaligi mashinasozligi tarmog‘ini yanada rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi texnikalari ishlab chiqarish jarayonini to‘liq yo‘lga qo‘yish, agrar sektorni hududlarning tabiiy iqlim va tuproq sharoitlariga mos keladigan zamonaviy va arzon qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta‘minlash”² yuzasidan respublikamizda keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur tadqiqot ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017-yil 7-iyuldagi PQ-3117-son “Qishloq xo‘jaligi mashinasozligi sohasida ilmiy-texnikaviy bazani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 31-iyuldagi PQ-4410-son “Qishloq xo‘jaligi mashinasozligini jadal rivojlantirish, agrar sektorni qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta‘minlashni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2020-yil 6-maydagi PQ-4704-son

¹ <https://www.fao.org> – BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti rasmiy sayti.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 31-iyuldagi “Qishloq xo‘jaligi mashinasozligini jadal rivojlantirish, agrar sektorni qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta‘minlashni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4410-son qarori.

“Respublikada kartoshka yetishtirishni kengaytirish va urug‘chiligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammonining o‘rganilganlik darajasi. Kartoshka kovlash mashinalari konstruksiyalarini ishlab chiqish, ularning elaklash ishchi organlarini takomillashtirish va parametrlarini asoslash bo‘yicha bir qator xorijiy olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, Lu Lixin, Pan Chjigo, G.D. Petrov, G.F. Suzdalyova, G.K. Rembalovich, A.V. Parshkov, S.S. Rogov, A.A. Golikov, V.A. Pavlov, N.V. Bishov, N.N. Yakutin, L.L. Maksimov, G.S. Nikitin, A.A. Ruzimurodov, S.T. Qodirov, N.I. Krivogov va boshqa olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Respublikamiz tuproq-iqlim sharoitida ildiz-mevali ekinlar hosilini yig‘ishtirish texnologiyalari va mashinalarini ishlab chiqish, ularning texnologik ish jarayonlari va ish organlari parametrlarini asoslash bo‘yicha R.I. Baymetov, A.To‘xta‘o‘ziyev, N.G‘. Baybabayev, F.M. Mamatov, R.N. Norchayev, D.R. Norchayev, U.G. G‘oyipov, Sh.B. Akbarov, R.X. Chorshanbiyev, A.A. Karimov va boshqa bir qator olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Bajarilgan tadqiqotlar asosida ildiz-mevalarni yig‘ishtirib olishni amalga oshiradigan texnik qurollar, ularning elaklash ishchi organlari konstruksiyalari ishlab chiqilgan. Ishlab chiqilgan texnik vositalar qishloq xo‘jaligi sohasida muayyan ijobiy natijalarga erishgan holda qo‘llanilib kelinmoqda.

Biroq mazkur tadqiqot ishlarida kam energiya sarflagan holda, yuqori ish samaradorligini ta‘minlaydigan kartoshka kovlagichning elaklash ishchi organini takomillashtirish va parametrlarini asoslash masalalari yetarlicha hal etilmagan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti va Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institutining 2022-2023-yillarga mo‘ljallangan IZ-2021012711 “Fermerbop universal ildiz-mevali kovlagich mashinasining tajriba nusxasini yaratish” mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kartoshka kovlash mashinasining elaklash ishchi organini texnik jihatdan takomillashtirish va parametrlarini asoslash orqali kartoshka yig‘ishtirish texnologik jarayonining samarasini oshirish hamda mehnat sarfini kamaytirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kartoshka kovlash mashinalari va texnika vositalarining texnologik ish jarayonlari va parametrlarini asoslash bo‘yicha ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlarni o‘rganish va tahlil qilish;

kartoshka kovlash mashinalarining elaklash ishchi organlari uchun tuproq-iqlim sharoitlariga mos keladigan texnik talablarni ishlab chiqish;

kartoshkani kovlash oldidan kartoshka, kartoshka ekilgan dala pushtasi va tuprog'ining fizik-mexanik xossalari, shakli va o'lchamlarini o'rganish;

elaklash ishchi organi takomillashgan, energiya-resurstejamkorlikni ta'minlaydigan kartoshka kovlagichning konstruktiv sxemasini ishlab chiqish;

energiya-resurstejamkorlikni ta'minlaydigan, takomillashgan elaklash qurilmali kartoshka kovlagichning parametrlarini asoslash bo'yicha nazariy va eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish;

energiya-resurstejamkor kartoshka kovlagichning takomillashgan elaklash qurilmasini yasash va dala sinovlarini o'tkazish;

energiya-resurstejamkor elaklash qurilmasi bilan jihozlangan kovlagich-elaklagichning texnik-iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqot ob'yekti sifatida kartoshka ekilgan dalaning pushtasi, kartoshka kovlash texnologiyasi, unda qo'llaniladigan kartoshka kovlagich va uning elaklash ishchi organi olingan.

Tadqiqotning predmeti kartoshka, kartoshka ekilgan dala pushtasi, pushta tuprog'ining fizik-mexanik xossalari, shakli va o'lchamlari, kartoshka kovlash mashinasi elaklash ishchi organi intensivatori, kartoshka kovlash texnologik ish jarayonining sifat, energetik va agrotexnik ko'rsatkichlari intensivator parametrlariga bog'liq holda o'zgarish qonuniyatlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishini bajarish jarayonida matematik hisoblash qoidalari, nazariy mexanika qonuniyatlari, statistik tahlil usullari, elovchi ish organi bilan kartoshkali tuproq massasini elaklanish darajasini aniqlash, eksperimentlarni matematik rejalashtirish va mavjud me'yoriy hujjatlarda belgilangan usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

elaklash ishchi organi elastik chiviqli intensivator bilan takomillashtirilgan kartoshkani yig'ishtirib olish mashinasi ishlab chiqilgan;

elaklash ishchi organi elastik chiviqli intensivator bilan takomillashtirilgan kartoshka kovlagichning konstruksiyasi, ishchi qismlarining o'zaro joylashishi kartoshkani shikastlamasdan, minimal energiya sarf qilib, tuproq palaxsasini jadal parchalash orqali asoslangan;

intensifikator yetakchi yulduzchasi diametri, elastik chivqlar soni va diametri kartoshka-tuproq massasidan kartoshkani shikastlamasdan ajratilishini hisobga olgan holda aniqlangan;

takomillashtirilgan elaklash ish organi intensivatorining kinematik ish rejimi mashina elevatori harakatiga bog'liq holda kartoshkani shikastlamaslik, kartoshka yo'qotilishi va elaklash darajasi talablarini hisobga olgan holda asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

belgilangan agrotexnik talablarga mos elaklash ishchi organi takomillashtirilgan kartoshka kovlash mashinasi ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan elaklash ishchi organi takomillashtirilgan kartoshka kovlash mashinasi qo'llanilganda kartoshkani yig'ib olishda energiya-resurs va mehnat

sarflari tejalishiga, hamda kartoshkaning shikastlanishi va yo‘qotilishi kamayishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning zamonaviy usul va o‘lchash vositalaridan foydalangan holda o‘tkazilganligi, nazariy va eksperimental tadqiqotlarning o‘zaro adekvatligi, olib borilgan tadqiqotlar ishlab chiqilgan kartoshka yig‘ishtirib olish mashinasi dala sinovlarining ijobiy natijalari va amaliyotga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati takomillashtirilgan elaklash ish organli kartoshka kovlash mashinasi konstruksiyasining ishlab chiqilganligi hamda nazariy va amaliy tadqiqotlarda olingan natijalarni boshqa shunga o‘xshash mashinalar va ishchi organlarining parametrlarini asoslashda qo‘llash mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan takomillashtirilgan energiya-resurstejamkor elaklash ishchi organli kartoshka kovlash mashinasi bilan agrotexnik talablar darajasida kartoshka yig‘ishtirib olish hisobiga yonilg‘i-moylash materiallari va mehnat sarfini kamaytirishga hamda ish unumini oshirishga erishilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kartoshka kovlagichning takomillashtirilgan elaklash ishchi organi parametrlarini asoslash bo‘yicha olingan natijalar asosida:

kartoshka kovlash mashinasining elaklash elevatori uchun O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining foydali modelga patenti olingan (“Kartoshka yig‘ishtirish mashinasining elaklash elevatori”, №FAP 01988 –2022y.). Natijada, kartoshka kovlash mashinasining elaklash elevatori konstruksiyasini takomillashtirish, elaklanish jarayonini yaxshilash, kartoshkalar shikastlanishini va yo‘qotilishini kamaytirish imkoniyati yaratilgan;

takomillashgan energiya-resurstejamkor kartoshka kovlash mashinasi uchun dastlabki talablar tasdiqlangan, uning konstruksiyasi ishlab chiqilib, parametrlari asoslangan (Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 11-oktyabrdagi 05/04-04-508-son ma’lumotnomasi). Natijada, kartoshkani agrotexnika talablari darajasida kovlashni amalga oshiradigan, ish sifati yuqori takomillashtirilgan elaklash ish organli kartoshka kovlagichning konstruksiyasini ishlab chiqish imkoniyati yaratilgan;

takomillashgan elaklash ishchi organli kartoshka kovlash mashinasi Qashqadaryo viloyati Kitob tumanidagi fermer xo‘jaliklarda joriy etilgan (Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 11-oktyabrdagi 05/04-04-508-son ma’lumotnomasi). Natijada, kartoshkani kovlab olishda yonilg‘i sarfi gektariga 9 foizga, mehnat sarfi 30,5 foizga va foydalanishdagi xarajatlar 31 foizga kamayishiga erishilgan;

elaklash ishchi organi takomillashtirilgan kartoshka kovlash mashinasining sanoat nusxalarini ishlab chiqarish uchun loyiha-konstruktorlik hujjatlari (dastlabki talablar, texnik topshiriq texnikaviy shartlar va chizmalar) «BMKB-Agromash» AJ da loyihalash jarayoniga joriy etilgan (Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 11-oktyabrdagi 05/04-04-508-son ma’lumotnomasi).

Natijada asoslangan parametrlarga ega kartoshka kovlagichning sanoat nusxalarini ishlab chiqarish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya ishining asosiy mazmuni bo'yicha jami 13 ta ilmiy ishlar chop etilgan. Shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligining 1 ta foydali modeliga patent olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 116 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob'yekti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, ishning aprobatsiya natijalari, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Kartoshka yetishtirish, uni yig'ishishtirishning hozirgi holati va kartoshka kovlash mashinalari elaklash ishchi organlari tahlili**» deb nomlangan birinchi bobida jahonda va Respublikamizda kartoshka yetishtirish va yig'ishishtirishning hozirgi holati, elaklash ishchi organlarining konstruksiyalari tahlili, elaklash ishchi organlarining konstruktiv parametrlarini asoslash bo'yicha ilgari o'tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlari tahlillari o'tkazilgan va shular asosida tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning «**Kartoshka va uning pushtasi tuprog'ining fizik-mexanik xossalari**» deb nomlangan ikkinchi bobida kartoshka va uning pushtasini geometrik parametrlari, kartoshka pushtasi tuprog'ining namligi va qattiqligi, pushtada joylashgan kartoshka tugunaklarini fraksion tarkibi hamda kartoshka tugunaklarining massasini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan sinovlarning natijalari keltirilgan.

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, turli navdagi kartoshkalar pushtasining ko'ndalang profili trapetsiya shakliga ega deb qabul qilinib, ularning pastki asosining o'rtacha eni $B_p=64,3$ va $B_p=65,6$ cm ni, yuqorigisi esa $b_{pe}=16,1$ cm va $b_{pe}=17,05$ cm va kartoshkalarining pushta tuprog'i ichida joylashish chuqurliklari o'rtacha $h_y=4,9-5,1$ cm va $h_p=16,8-17,0$ cm ni hamda yonbag'ining haqiqiy qiyalik burchagi $\varphi_g=44^\circ$ ni, kartoshka uyasining o'rtacha eni esa $b_{o'rt}=27,9-28,2$ cm ni tashkil etdi. Kartoshka pushtasining qattiqliklari mos ravishda 0,75-0,81 MPa ni, namligi 12,5-12,9 foizni, zichliklari 1080-1105 kg/m³

ni, kartoshka pushtasining $0,7 \text{ m}^2$ yuzasida joylashgan uchta fraksiyadagi kartoshkalarining o‘rtacha soni 24-25 donani, o‘rtacha kvadratik og‘ishi $\pm 1,75-2,25$ donani hamda ularning massalari bo‘yicha o‘rtacha qiymatlari mos ravishda 88,5-90,5 grammni tashkil etishi aniqlandi. Turli navdagi ekilgan kartoshka pushtasining $0,14 \text{ m}^3$ hajmdagi tuprog‘i massasining o‘rtacha qiymatlari mos ravishda 160-165 kg ni tashkil etdi.

Dissertatsiyaning «**Kartoshka kovlagichning parametrlarini nazariy asoslash**» deb nomlangan uchinchi bobida ishlab chiqilgan elaklash ish organi takomillashtirilgan kartoshka kovlagichning konstruktiv sxemasi va texnologik ish jarayoni hamda uning tadqiq etiladigan parametrlari, elastik chiviqli intensifikatorning kinematik parametrlari va chiviqli intensifikator tomonidan tuproq palaxsasiga beriladigan tik yuklanishni aniqlash bo‘yicha olib borilgan nazariy tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.

Elaklash ish organi takomillashtirilgan kartoshka kovlagich rama 1, qazish lemexlari 2, intensifikator stoykasi 3, asosiy elevator 4, qattiq chiviq 5, elastik chiviq 6, yetaklanuvchi va yetakchi yulduzchalar 7 va 8, taranglovchi rolik 9, intensifikator tishli yulduzchasi 10, intensifikatorning elastik chivig‘i 11, mashina korpusi 12 lardan (1-rasm) tashkil topgan.

Chiviqli intensifikatorning energetik va agrotexnik ish ko‘rsatkichlariga ta’sir etadigan asosiy parametrlari hisoblanadi (2-rasm): chiviqli intensifikator tishli yulduzchasining diametri D_t , m; chiviqli intensifikator tishli yulduzchasi perimetri bo‘yicha to‘qib chiqilgan aylana diametri


D_s , m; chiviqli intensifikator yulduzchasi tishining balandligi h , m; elevator ustidan elastik chiviqqacha bo‘lgan masofa H_k , m; tishlar soni z_{ut} , chiviq uzunligi L_{su} , m.

2-rasmdagi sxemaga asosan chiviqli intensifikator tishli yulduzchasining diametri quyidagi ifoda sharti orqali aniqlanadi

$$D_t \leq D_s + 2H_k + 2h. \quad (1)$$


Elevator ustidan elastik chiviqqacha bo‘lgan masofa H_k quyidagi shart orqali aniqlanadi:

$$H_k \geq H_{gr} - h_r, \quad (2)$$



1-rasm. Chiviqli intensifikator bilan jihozlangan kartoshka kovlagichning konstruktiv sxemasi [Patent UzR № FAP 01988]

bunda h_r – chivqlarni elevator ustidagi tuproqqa botish chuqurligini ruxsat etilgan chegaraviy masofasi, m; H_{gr} – elevator ustidagi tuproqning balandligi, m.



1 – lemex; 2 – elak; 3 – chivqli intensivator; 4, 5 – yetaklanuvchi va taranglovchi yulduzchalar

2-rasm. Chivqli intensivatorning konstruktiv va texnologik sxemasi hamda uning tadqiq etiladigan parametrlari

Chivqli intensivator yulduzchasi tishining balandligi h o‘z navbatida quyidagi shart orqali aniqlanadi:

$$h \leq L_z \sin \alpha_e, \quad (3)$$

bunda α_e – elevatori gorizontga nisbatan o‘rnatilish burchagi, °; L_z – elevator zvenosining uzunligi, m.

Chivqli intensivator tishli yulduzchasining diametri o‘z navbatida quyidagi shartni qanoatlantirishi lozim:

$$D_t \leq L_l \cos \alpha_e, \quad (4)$$

bunda L_l – yetaklanuvchi va taranglovchi yulduzchalar orasidagi masofa, m.

(1) ifoda ko‘rsatkichlarini (4) ifodaga qo‘yib quyidagi shart ifodasiga, ya’ni elastik chivqlar joylashgan tishli yulduzcha aylanasing diametrini aniqlash imkonini beradigan quyidagi ifodaga ega bo‘lamiz

$$D_s \leq L_l \cos \alpha_e - 2(H_{gr} - h_r) - 2(L_z \sin \alpha_e). \quad (5)$$

Chivqli intensivator chivqlari orasidagi masofa L_{or} elevator chivqlari orasidagi masofaga d_k teng yoki kichik bo‘lish shartidan aniqlanadi

$$L_{or} \leq d_k. \quad (6)$$

Chivqli intensivator chivqlarini elak ustidagi tuproq palaxsasi bilan tinch turgan holatda ta’sir etuvchi chivqlari soni quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$z_{ts} = \left(\frac{L_l \cos \alpha_e - 2(H_{gr} - h_r) - 2(L_z \sin \alpha_e)}{2} \cdot \frac{\pi \beta}{180^\circ} \right) / L_{or}. \quad (7)$$

Chiviqli intensivikator chiviqlarining umumiy soni esa ushbu ifoda bo'yicha aniqlanadi:

$$z_{um} = (L_l \cos \alpha_e - 2(H_{gr} - h_r) - 2(L_z \sin \alpha_e)) \cdot \pi / L_{or} . \quad (8)$$

Tishli yulduzcha tishlaring soni uning diametri va elak zanjiri parametrlariga bog'liq ravishda quyidagicha aniqlash mumkin:

$$z_{ut} = \pi (D_s + 2(H_{gr} - h_r) + 2(L_z \sin \alpha)) / 2d_k \quad (9)$$

Chiviqli intensivikator chivig'ining uzunligi quyidagicha aniqlanadi

$$L_{su} = B_m - 2b_{or} - 2b_{tq} , \quad (10)$$


bunda, B_m - kartoshka kovlagich eni, m; b_{or} - kovlagich yon ramasi va elak yon tomoni orasidagi oraliq masofa, m; b_{tq} - tishli yulduzcha qalinligi, m.

Chiviqli intensivikator chivig'ining ko'ndalang holatida elak ustidagi tuproq palaxsasi bilan ta'sirlashganda unga biroz botib ta'sirlashadi. Elak ustidagi tuproq palaxsasining geometrik ko'rinishini trapetsiya shaklida deb qabul qilsak, unga botgan chiviqlarning uzunligini quyidagi ifoda orqali aniqlaymiz:

$$L_{st} = b_{pe} + 2(H_{gr} - H_k) / \operatorname{tg} \varphi . \quad (11)$$

$H_k=0,1$ m, $H_{gr}=0,15$ m, $h_r=0,05$ m, $L_{ro}=0,025$ m, $B_m=1,4$ m, $b_{pe}=0,15$ m, $\varphi=40$, $b_{or}=0,025$ m, $b_{tq}=0,02$ m, $L_l=0,6$ m, $\alpha=30^0$, $L_z=0,04$ m, $\beta=45^0$ qabul qilinib, (1) va (11) ifodalar bo'yicha hisoblashlar $D_t=0,52$ m, $D_s=0,28$ m, $h=0,02$ m, $Z_{ts}=4$ dona, $z_{um}=35$ dona, $z_{ut}=32$ dona, $L_{su}=1,31$ m, $L_{st}=0,27$ m bo'lishi lozimligini aniqlaymiz.

Chiviqli intensivikator tomonidan tuproq palaxsasiga beriladigan tik yuklanishni (3-rasm) tuproqni talab darajasida uvalashini ta'minlashi shartidan quyidagi ifoda bo'yicha aniqlaymiz:



3-rasm. Chiviqli intensivikatorning chivig'iga beriladigan tik yuklanishni aniqlashga doir sxema

$$Q_{yu} = 2(Q_y + Q_{pa}) , \quad (12)$$

bunda Q_y , Q_{pa} - mos ravishda yuqorigi va pastki chiviq'larga beriladigan tik yuklanish, N.


$$Q_{yu} = 2q_0(1 + k_v V_e^2) L_{st} d_{ch} \times \left[\left(h_{yu} + \sqrt{H_{gr}^2 - L_{or}^2 - H_k^2} - d_{ch} \right) \sin \left(\frac{\pi}{4} + \varphi_1 \right) + \frac{d_{ch}}{2} \left(\frac{\pi}{4} + \frac{\varphi_1}{2} + \frac{1}{2} \cos \varphi_1 \right) \right], \quad (13)$$

bunda q_0 – tuproqning hajmiy ezilish koeffitsiyenti, N/m³; k_v -tezlikni hisobga oluvchi proporsionallik koeffitsiyenti, s²/m²; V_e -elakning chiziqli tezligi, m/s.

Bu ifodaga $q_0 = 1,1 \cdot 10^6$ N/m³, $k_v = 0,01$ s²/m², $V_e = 1,5$ m/s, $L_{st} = 1$ m, $d_{ch} = 0,004$ m, $H_{gr} = 0,15$ m, $H_k = 0,1$ m, $h_{yu} = 0,0075$ m, $L_{or} = 0,025$ m, $\varphi_1 = 30^\circ$ qiymatlarni qo‘yib, intensivator chivig‘i tuproqni talab darajasida uvalashi uchun uning 998,8 N/m tik yuklanish berilishi lozimligini aniqlaymiz.

Dissertatsiyaning «**Ekspirimental tadqiqotlarni o‘tkazish usullari va natijalari**» deb nomlangan to‘rtinchi bobida elastik chivikli intensivator bilan jihozlangan kartoshka kovlagichning talab darajasidagi ish sifatini ta‘minlovchi parametrlarini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan bir va ko‘p omilli eksperimental tadqiqotlarning natijalari keltirilgan. Eksperimental tadqiqotlarda elastik chiviklar diametrlari, elastik chiviklariga kiygizilgan rezina shlang diametrlari, chiviklariga kiygizilgan polietilen quvur diametrlari, tishli yulduzchanning diametri, uning perimetri bo‘ylab joylashgan elastik chiviklarning soni va ularni yulduzchanning turli perimetri bo‘ylab joylashgan diametrlarining kartoshkaning yo‘qotilishi, shikastlanishi va tugunak-tuproq massasining elaklanish darajasiga ta‘siri o‘rganildi. Ularning natijalari 4-7-rasmlarda keltirilgan.

Dala sinovlarini o‘tkazish jarayonida kartoshka kovlagich chivikli intensivator elastik chiviklar diametrini uning sifat ko‘rsatkichlarga ta‘siri o‘rganildi. Keltirilgan ma‘lumot va grafiklardan ko‘rinib turibdiki (4-rasmga qaralsin), kartoshka kovlagich chivikli intensivator chiviklari diametri ortishi



4-rasm. Chivikli intensivator elastik chiviklari diametri (d_{tr}) ni kartoshkaning yo‘qotilish darajasi ($P_{yo'q}$), shikastlanish darajasi (P_{sh}) va tugunak-tuproq massasining (E_d) ga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafiklari

bilan kartoshkaning yo‘qotilish darajasi agregatning har ikkala harakat tezligida ham ortgan, ya‘ni, kartoshka kovlagich chivikli intensivator chiviklari diametri 0,3 cm dan 0,6 cm gacha ortganda agregatning har ikkala harakat tezligida kartoshkaning yo‘qotilish darajasi mos ravishda 2,60 % dan 3,08 % gacha va 2,71 % dan 3,22 % gacha ortgan. Buni chivikli intensivator chiviklari diametri ortishi bilan tuproq palaxsasiga beradigan tik yuklanishning kamayishi va chiviklar

orasidagi oraliq tirqish masofaning qisqarishi natijasida tuproq palaxsasining yaxshi elaklanmasligi bilan izohlash mumkin.

Kartoshkaning shikastlanish darajasi chiviqli intensivator elastik chivqlari diametri ortishi bilan har ikkala harakat tezligida ham kamaygan. Masalan, agregat harakat tezligi 0,8 m/s bo'lganda chiviqli intensivator chivqlari diametri 0,3 cm dan 0,6 cm gacha ortganda, kartoshkaning shikastlanish darajasi 4,86 % dan 3,22 % gacha, harakat tezligi 1,2 m/s bo'lganda esa 5,21 % dan 3,44 % gacha kamaygan. Buni chiviqli intensivator elastik chivqlari diametrining oshishi natijasida, elevator ustida bo'ylama yo'nalishda harakatlanayotgan kartoshka-tuproq massasiga ta'sir etuvchi tik yuklanishning kamashishi bilan izohlash mumkin.

Kartoshkaning eng ko'p shikastlanish darajasi chiviqli intensivator elastik chivqlari diametri 0,3 cm bo'lganda tezliklarga mos ravishda 4,86 % va 5,21 % ni tashkil etdi.


Kartoshka-tuproq massasining elaklanish darajasi kartoshka kovlagich chiviqli intensivator elastik chivqlari diametrining ortishi bilan kamaygan, ya'ni, chiviqli intensivator elastik chivqlari diametri 0,3 cm dan 0,6 cm gacha ortganda kartoshka-tuproq massasining elaklanish darajasi agregat harakat tezligi 0,8 va 1,2 m/s bo'lganda mos ravishda 88,4 % dan 79 % gacha va 87,2 % dan 76,8 % gacha kamaygan.

Yuqorida bajarilgan dala sinovlari natijalari shuni ko'rsatdiki, elastik chivqlardan foydalanganimizda kartoshkaning yo'qotilishi va kartoshka-tuproq massaning elaklanish darajasi agrotexnik talablarga to'la mos keldi, ammo kartoshkaning shikastlanish darajasi agrotexnik talablardan yuqori bo'ldi. Elastik chivqqa kiygizilgan rezina shlang va polietilen quvurda o'tkazilgan tajriba sinovlarida esa kartoshkaning yo'qotilishi va kartoshka-tuproq massasining elaklanish darajasi past, ammo kartoshkaning shikastlanish darajasi agrotexnik talablar darajasida bo'lishini ko'rsatdi. Elastik chivqqa kiygizilgan rezina shlang va polietilen quvurlarning ishlash muddati pastligi, ishlatish jarayonida tuproq-tugunak massani o'tkazish qobiliyati, elastiklik xususiyati va tuproqni uvalash sifatining pastligi elastik chivqlarning o'zidan foydalanish lozimligini ko'rsatdi.

Kartoshka kovlagich chiviqli intensivatori uchun elastik chivq sifatida 0,3 cm dan 0,6 cm gacha bo'lgan tros tanlandi. Olingan tajribala natijasi shuni ko'rsatdiki, kartoshkaning shikastlanishi va yo'qotilishini hamda elaklanish darajasini agrotexnik talablar bo'yicha ta'minlash uchun elastik chivqlari diametri 0,4-0,5 cm oralig'ida bo'lishi lozim.

Keltirilgan grafik bog'liqliklar shuni ko'rsatadiki, chiviqli intensivator tishli yulduzchasining diametri ortishi bilan agregatning har ikkala harakat tezligida ham kartoshkaning yo'qotilish darajasi avval sekinroq keyin esa tezroq ortgan (5-rasmga qaralsin).

Masalan, tishli yulduzchasining diametri 45 cm dan 55 cm gacha ortganda kartoshkaning yo‘qotilishi agregatning har ikkala harakat tezligida mos ravishda 2,70 % dan 2,92 % gacha va 2,87 % dan 3,09 % gacha ortgan bo‘lsa, tishli yulduzchasining diametri 55 cm dan 60 cm gacha ortganda esa bu ko‘rsatkich mos



5-rasm. Chiviqli intensivikator tishli yulduzchasining diametri (D_t) ni kartoshkaning yo‘qotilish darajasi ($P_{yo'q}$), shikastlanish darajasi (P_{sh}) va tugunak-tuproq massasining (E_d) ga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafiklari

ravishda 2,92 % dan 3,40 % gacha va 3,09 % dan 3,69 % gacha ortgan. Buni kartoshka kovlagich chiviqli intensivikator tishli yulduzchasining diametri ortishi hisobiga elevatorning aylanish tezligi kamayishi bilan izohlash mumkin. Agregat harakat tezligi oshishi bilan kartoshkaning yo‘qotilishi ortdi.


Chiviqli intensivikator tishli yulduzchasining diametri ortishi bilan har ikkala harakat tezligida ham kartoshkaning shikastlanish darajasi kamayib bordi, ya‘ni diametr 45 cm dan 55 cm gacha ortganda agregat harakat tezligi 0,8 m/s bo‘lganda, kartoshkaning shikastlanishi 3,63 % dan 2,80 % gacha, 1,2 m/s bo‘lganda esa 3,85 % dan 3,01 % gacha kamaygan. Tishli yulduzchasining diametri kichik bo‘lganda, uning aylanish tezligi yuqori bo‘ladi va shu sababli chivqlarning kartoshkaga zarba kuchi yuqori bo‘lib ular shikastlanadi. Tishli yulduzchasining diametri 55 cm dan 60 cm gacha ortganda kartoshkaning shikastlanishi har ikkala harakat tezligida ham deyarli o‘zgarishsiz qoldi. Kartoshkaning eng kam shikastlanishi tishli yulduzchasining diametri 55-60 cm oralig‘ida bo‘lganda mos ravishda 2,70-2,95 foizni tashkil etdi.

Chiviqli intensivikator tishli yulduzchasining diametri ortishi bilan tuproq-kartoshka massasining elaklanish darajasi ham shikastlanish darajasi singari kamayadi. Tuproq-kartoshka massasining maksimal uvalanish darajasi tishli yulduzchasining diametri 45 cm bo‘lganda kuzatildi. Biroq tishli yulduzchasining diametri 45 cm bo‘lganda kartoshkaning shikastlanish darajasi agrotexnik talablarga javob bermaydi.

Tishli yulduzchasining diametri 45 cm dan 60 cm gacha ortganda agregat harakat tezligi 0,8 m/s bo‘lganda, tuproq-kartoshka massasining elaklanish darajasi 91 % dan 80,1 % gacha, 1,2 m/s bo‘lganda esa 86,0 % dan 77,1 % gacha kamaygan. Buni ham yuqoridagilar kabi izohlash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o‘tkazilgan tadqiqot natijalari bo‘yicha kartoshka hosili kam shikastlanishi va yo‘qotilishi hamda tuproq-kartoshka massasi agrotexnik talablar darajasida elaklanishi uchun kartoshka kovlagich chiviqli intensivikator tishli yulduzchasining diametri 55-60 cm oralig‘ida bo‘lishi lozim.

Tajriba natijalaridan ko‘rinib turibdiki (6-rasmga qaralsin), chiviqli intensivator chiviqlarining sonini 25 dona dan 40 dona gacha ortishi bilan har ikkala harakat tezligida ham kartoshkaning yo‘qotilish darajasini kamayishiga, shikastlanish darajasini esa ortishiga olib kelgan, ya’ni chiviqli intensivator chiviqlarining soni 25 dona dan 40 dona gacha ortishi bilan agregatning 0,8 m/s harakat tezligida kartoshkaning yo‘qotilish darajasi 3,29 % dan 2,84 % gacha kamaygan, shikastlanish darajasi esa 2,60 % dan 3,09 % gacha ortgan, agregatning 1,2 m/s harakat tezligida esa bu ikki ko‘rsatkichlar mos ravishda 3,41 % dan 2,92 % gacha kamaygan hamda 2,78 % dan 3,30 % gacha ortgan. Buni chiviqli




6-rasm. Chiviqli intensivator chiviqlarining soni (z_{um}) ni kartoshkaning yo‘qotilish darajasi ($P_{yo'q}$), shikastlanish darajasi (P_{sh}) va tugunak-tuproq massasining (E_d) ga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafiklari

intensivator chiviqlarining sonini ortishi kovlab olinayotgan tuproq-kartoshka massasi bilan o‘zaro ta’sirlashish ortishi bilan izohlash mumkin.

Tuproqning uvalanish darajasi, ya’ni tuproq-kartoshka massasining elaklanish darajasi chiviqli intensivator chiviqlarining soni ortishi bilan har ikkala harakat tezligida ham ortgan. Masalan, chiviqli intensivator chiviqlarining soni 25 dona dan 40 dona gacha ortganda agregat harakat tezligi 0,8 m/s bo‘lganda elaklanish darajasi 78,0 % dan 88,4 % gacha, agregat harakat tezligi 1,2 m/s bo‘lganda esa yuqoridagi ko‘rsatkich 76,40 % dan 86,7 % gacha ortgan. Buni chiviqlar sonining ortishi natijasida tuproqqa beriladigan intensiv ta’sirning ortishi bilan izohlash mumkin.

Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, kartoshka kovlagich belgilangan ish jarayonini to‘liq bajarishi uchun chiviqli intensivator chiviqlarining soni kamida 35 dona bo‘lishi lozim. 7-rasmda keltirilgan grafik bog‘liqliklardan ko‘rinib turibdiki, kartoshka kovlagich intensivator yulduzchasi perimetri bo‘ylab to‘qib chiqilgan aylana diametri ortishi bilan kartoshkaning yo‘qotilish darajasi to‘g‘ri chiziq qonuniyati bo‘yicha kamaygan. Intensivator yulduzchasi perimetri bo‘ylab to‘qib chiqilgan aylana diametri ortishi bilan kovlab olinayotgan kartoshka-tuproq massasining elaklarga erkin o‘tishi ta’minlanadi. Agregatning har ikkala harakat tezligida ham intensivator yulduzchasi perimetri bo‘ylab to‘qib chiqilgan aylana diametri 27 cm dan 30 cm gacha ortishi bilan kartoshkaning yo‘qotilish darajasi mos ravishda 3,10 % dan 2,56 % gacha va 3,30 % dan 2,65 % gacha kamaygan.

Kartoshkaning eng kam yo‘qotilishi intensivator yulduzchasi perimetri bo‘ylab to‘qib chiqilgan aylana diametri 30 cm bo‘lganda kuzatildi. Buni intensivator yulduzchasi perimetri bo‘ylab to‘qib chiqilgan aylana diametrini



7-rasm. Intensifikator yulduzchasi perimetri bo‘ylab to‘qib chiqilgan aylana diametri (d_{ayt}) ni kartoshkaning yo‘qotilish darajasi ($P_{yo'q}$), shikastlanish darajasi (P_{sh}) va tugunak-tuproq massasining (E_d) ga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafiklari

ortishi natijasida chiviq va elevator orasidagi masofa yaqinlashishi hisobiga kovlab olinayotgan tuproq-kartoshka massasiga chivqlarning ta’siri ortishi bilan izohlash mumkin.

Intensifikator yulduzchasi perimetri bo‘ylab to‘qib chiqilgan aylana diametri 27 cm dan 30 cm gacha ortishi bilan kartoshkaning shikastlanish darajasi agregatning har ikkala harakat tezliklarida ortgan, ya’ni chivqlar orasidagi masofa 27 cm dan 30 cm gacha ortganda agregatning harakat tezligi 0,8 m/s bo‘lganda, kartoshkaning shikastlanish darajasi 2,44 % dan 3,15 % gacha, harakat tezligi 1,2 m/s bo‘lganda esa 2,65 % dan 3,36 % gacha ortgan.

Intensifikator yulduzchasi perimetri bo‘ylab to‘qib chiqilgan aylana diametri 27 cm dan 30 cm gacha ortishi tuproq-kartoshka massasining elaklanish darajasini ortishiga olib kelgan. Masalan, intensivator yulduzchasi perimetri bo‘ylab to‘qib chiqilgan aylana diametri 27 cm dan 30 cm gacha ortganda tuproq-kartoshka massasining elaklanish darajasi har ikkala harakat tezligida mos ravishda 75,7 % dan 89,4 % gacha va 73,2 % dan 86,6 % gacha ortgan. Buni intensivator yulduzchasi perimetri bo‘ylab to‘qib chiqilgan aylana diametrini ortishi natijasida chivqlarning tuproq bilan ta’sirlashishi ortishi bilan izohlash mumkin.

Grafiklar va empirik ifodalardan ko‘rinib turibdiki, kartoshkaning kam shikastlanishi va yo‘qotilishi hamda tuproq-kartoshka massasining elaklanish darajasi talablar darajasida bo‘lishi uchun chivqli intensivator yulduzchasi perimetri bo‘ylab to‘qib chiqilgan aylana diametri 28-29 cm oralig‘ida bo‘lishi lozim.

Elastik chivqli intensivator bilan jihozlangan kartoshka kovlagichning bir omilli eksperimentlarda aniqlangan parametrlarini maqbul qiymatlarini aniqlash maqsadida ko‘p omilli eksperimentlarni matematik rejalashtirish usulidan foydalanib maqbul qiymatlari aniqlandi. Bunda baholash mezonlariga omillarning ta’sirini ikkinchi darajali polinom to‘liq yoritib beradi deb qaralib, tajribalar Xartli-4 (H_4) rejasi bo‘yicha o‘tkazildi.

O‘tkazilgan nazariy tadqiqotlar va bir omilli eksperimentlar natijalaridan kelib

chiqqan holda quyidagi parametrlar chiviqli intensivator yulduzchasining diametri, chiviqlar soni, intensivator yulduzchasi perimetri bo‘ylab to‘qib chiqilgan aylana diametri, agregat harakat tezligini kartoshka tuproq massasining elaklanish darajasiga, kartoshkaning shikastlanish va yo‘qotilishiga eng ko‘p ta’sir ko‘rsatadigan omillar sifatida qabul qilindi: Omillar quyidagicha shartli belgilandi: X_1 – chiviqli intensivator yulduzchasining diametri, X_2 – intensivator yulduzchasi perimetri bo‘ylab to‘qib chiqilgan chiviqlarning soni, X_3 – chiviqlar orasidagi masofa va X_4 – agregat harakat tezligi.

Ko‘p omilli eksperimentlarni o‘tkazishda baholash mezonini sifatida tuproqning elaklanish darajasi Y_1 (%), kartoshkaning shikastlanish darajasi Y_2 (%) va kartoshkaning yo‘qotilish darajasi Y_3 (%) qabul qilindi.

Baholash mezonlariga nazorat qilinmaydigan omillarning ta’sirini kamaytirish maqsadida tajribalarni o‘tkazish ketma-ketligi tasodifiy sonlar jadvalidan foydalanib belgilandi.

Tajribalarda olingan ma’lumotlarga “PLANEXP” dasturi bo‘yicha ishlov berildi. Bunda dispersiyaning bir xilligini baholashda Koxren mezonidan, regressiya koeffitsiyentlarini qiymatini baholashda Styudent mezonidan, regression modellarning adekvatligini baholashda Fisher mezonidan foydalanildi.

Tajribalarda olingan ma’lumotlarga yuqoridagi tartibda ishlov berilib, baholash mezonlarini adekvat ifodalovchi quyidagi regressiya tenglamalari olindi:

- kartoshka-tuproq massasining elaklanish darajasi, %:

$$Y_1 = 81,7 + 0,45X_1 + 0,87X_2 + 0,42X_3 + 0,25X_4 - 1,17X_1^2 + 0,51X_1X_2 - 0,53X_1X_3 - 0,47X_1X_4 - 0,31X_2^2 + 0,56X_2X_3 + 0,30X_2X_4 + 0,61X_3^2 + 0,21X_3X_4 - 0,98X_4^2; \quad (14)$$

- kartoshkaning shikastlanishi darajasi, %:

$$Y_2 = 2,61 + 0,028X_1 + 0,025X_2 + 0,032X_3 - 0,027X_4 + 0,039X_1^2 + 0,015X_1X_2 + 0,017X_1X_3 + 0,018X_1X_4 - 0,015X_2^2 + 0,020X_2X_3 + 0,032X_2X_4 + 0,014X_3^2 + 0,025X_3X_4 + 0,019X_4^2; \quad (15)$$

- kartoshkaning yo‘qotilish darajasi, %:

$$Y_3 = 2,85 + 0,051X_1 - 0,088X_2 - 0,040X_3 + 0,11X_4 - 0,015X_1^2 - 0,027X_1X_2 - 0,037X_1X_3 + 0,033X_1X_4 - 0,055X_2^2 + 0,021X_2X_3 - 0,019X_2X_4 - 0,024X_3^2 + 0,020X_3X_4 + 0,029X_4^2; \quad (16)$$

(14)-(16) regressiya tenglamalarining yechimlari 0,8-1,2 m/s harakat tezligida kam energiya sarflagan holda talab darajadagi ish sifatini ta’minlashi uchun Chiviqli intensivator yulduzchasining diametri 55 cm, intensivator yulduzchasi perimetri bo‘ylab to‘qib chiqilgan chiviqlarning soni 35 dona, intensivator yulduzchasi perimetri bo‘ylab to‘qib chiqilgan aylana diametri 29 cm bo‘lishi lozimligini ko‘rsatdi.

Omillarining ushbu qiymatlarida kartoshka-tuproq massasining elaklanish darajasi 83,1 foiz, kartoshkaning shikastlanish va yo‘qotilish darajasi 3 foizdan

kam bo'ldi.

Dissertatsiyaning «**Elaklash ishchi organi takomillashtirilgan kartoshka kovlagichning xo'jalik sinov natijalari va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari**» deb nomlangan beshinchi bobida elaklash ishchi organi takomillashtirilgan kartoshka kovlagich nusxasining texnik tavsifi, asosiy parametrlari, xo'jalik sinovlari natijalari va uning texnik-iqtisodiy samaradorligi keltirilgan.

Sinovlarda ishlab chiqilgantajribaviy kartoshka kovlagichning ish ko'rsatkichlari agrotexnik talablarga to'liq mos keladi va u belgilangan texnologik jarayonni to'liq va ishonchli bajardi hamda sinovlarda olingan natijalar unga qo'yilgan dastlabki talablarga mos keladi.

Texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlash bo'yicha o'tkazilgan hisoblashlar shuni ko'rsatdiki, elaklash ishchi organi takomillashtirilgan kartoshka kovlagich qo'llanilganda mehnat sarfini 30,5 foizga va ekspluatatsion xarajatlarni 31 foizga kamayishini ko'rsatdi. Yillik iqtisodiy samara elaklash ishchi organi takomillashtirilgan kartoshka kovlagichga 19 515 756 so'm ni tashkil etadi.

XULOSA

«Kartoshka kovlagichning elaklash ishchi organini takomillashtirish va parametrlarini asoslash» mavzusidagi texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Respublikamiz tuproq iqlim sharoitida kartoshka hosilini agrotexnik talablar bo'yicha kovlab olinishini ta'minlash uchun kartoshka kovlagichlarning elaklash ish organlariga turli tuproq uvalagichlar (intensifikator)ni qo'llash hisobiga elaklarning sonini qisqartirib metallhajmdorlikni kamaytirish dolzarb ilmiy-texnik masala hisoblanadi.

2. Mavjud kartoshka kovlagich va yig'ishtirish mashinalari konstruksiyalari tahlil etilganda, tuproq namligi past bo'lgan sharoitda kartoshka kovlab olish jarayonida kartoshka tugunaklarini elaklar ta'sirida shikastlanishini kamaytirish uchun kartoshka-tuproq aralashmasining elaklanishini jadallashtiruvchi intensifikatorni elak old qismiga o'rnatish maqsadga muvofiq hisoblanadi, ya'ni bunda kartoshka tugunaklari tuproq bilan himoyalangan bo'ladi.

3. Taklif etilayotgan chiviqli intensifikator parametrlarini nazariy asoslash uchun kartoshka pushtasining geometrik o'lchamlarini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, turli navdagi kartoshkalar pushtasining ko'ndalang profili trapetsiya shakliga ega deb qabul qilinib, ularning pastki asosining o'rtacha eni $B_p=64,3$ va $B_p=65,6$ cm ni, yuqorigisi esa $b_{pe}=16,1$ cm va $b_{pe}=17,05$ cm va kartoshkalarining pushta tuprog'i ichida mos ravishda joylashish chuqurliklari o'rtacha $h_y=4,9-5,1$ cm va $h_p=16,8-17,0$ cm ni hamda yonbag'ining haqiqiy qiyalik burchagi $\varphi_g=44^\circ$ ni, kartoshka uyasiining o'rtacha eni esa $b_{o'rt}=27,9-28,2$ cm ni tashkil etdi.

4. Kartoshka pushtasining qattiqliklari mos ravishda 0,75-0,81 MPa ni, namligi 12,5-12,9 foizni, zichliklari 1080-1105 kg/m³ ni, kartoshka pushtasining 0,7 m² yuzasida joylashgan uchta fraksiyadagi kartoshkalarining o'rtacha soni

24-25 donani, o'rtacha kvadratik og'ishi $\pm 1,75-2,25$ donani hamda ularning massalari bo'yicha o'rtacha qiymatlari mos ravishda 88,5-90,5 grammni, turli navdagi ekilgan kartoshka pushtasining 0,14 m³ hajmdagi tuprog'i massasining o'rtacha qiymatlari mos ravishda 160-165 kg tashkil etishi aniqlandi.

5. Taklif etilayotgan kartoshka kovlagichning chiviqli intensivatori chiviqlari kartoshka tugunaklarini kam shikastlab tuproqdan ularni jadal ajratishi uchun intensivator yulduzchasining diametri 55 cm, uning yulduzchasi perimetri bo'ylab to'qib chiqilgan chiviqlarning soni 35 dona, hamda yulduzcha perimetri bo'ylab to'qib chiqilgan aylana diametri 29 cm bo'lishi lozim.

6. Kartoshka kovlagich 1,2 m/s tezlikda harakatlanganda kam energiya sarflangan holda elak ustidagi qattiq kesaklarni va tuproqni talab darajasida uvalanishini ta'minlash uchun chiviqli intensivator elastik chiviqlari diametri 0,5 cm bo'lishi lozim.

7. Ishlab chiqilgan elaklash qurilmasi chiviqli intensivatorga ega kartoshka kovlagich qo'llanilganda mehnat sarfi 30,5 foizga va ekspluatatsion xarajatlar 31 foizga kamaydi. Natijada ushbu kartoshka kovlagichni qo'llash orqali yiliga 19 515 756 so'm iqtisod qilishga erishildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.06.2020.Т.111.02
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРШИНСКОМ
ИНЖЕНЕРНО-ЭКОНОМИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

КАРШИНСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

ЖУРАЕВ БАХАДИР БОТИРОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ И ОБОСНОВАНИЕ ПАРАМЕТРОВ
СЕПАРИРУЮЩЕГО РАБОЧЕГО ОРГАНА КАРТОФЕЛЕКОПАТЕЛЯ**

**05.07.01 - Сельскохозяйственные и мелиоративные машины. Механизация
сельскохозяйственных и мелиоративных работ**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Карши – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан за номером B2024.3.PhD/T4935.

Диссертация выполнена в Каршинском инженерно-экономическом институте.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу: www.qmii.uz и Информационном образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Норчаев Даврон Рустамович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Жураев Фазлиддин Уринович
доктор технических наук, профессор

Иргашев Дилмурод Бегмуродович
доктор философии по техническим наукам (PhD), доцент

Ведущая организация:

**Самаркандский институт агроинноваций
и научных исследований**

Защита диссертации состоится «26» марта 2025 г. в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.06.2020.T.111.02 при Каршинском инженерно-экономическом институте (Адрес: 180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, д. 225. Тел.: (+99875) 221-09-23, факс: (+99875) 224-13-95, e-mail: qmii@qmii.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинского инженерно-экономического института (регистрационный номер 146). (Адрес: 180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, д.225. Тел.: (+99875) 221-09-23, факс: (+99875) 224-13-95, e-mail: qmii@qmii.uz).

Автореферат диссертации разослан «10» марта 2025 года.

(Протокол рассылки № 12 «10» 03 2025 года).



Ф.М. Маматов

Председатель научного совета по присуждению
ученых степеней, д.т.н., профессор

Д.Ш. Чуянов

Ученый секретарь научного совета по присуждению
ученых степеней, д.т.н., профессор

Э.У. Эшдавлатов

Председатель научного семинара при научном совете по
присуждению ученых степеней, д.т.н., доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Картофель – один из основных продуктов питания для человека. Растущее население мира увеличивает спрос на картофель наряду с другими продуктами питания. В связи с этим использование энергосберегающих машин с высокой производительностью при уборке картофеля занимает одно из ведущих мест. «Согласно отчету Продовольственной и сельскохозяйственной организации Объединенных Наций от 30 мая 2022 года, учитывая, что в 2020 году картофель был посажен на площади более 20 миллионов гектаров в 150 странах мира, с годовым производством 359 миллионов тонн урожая, производство картофеля к 2025 году увеличится до 500 млн. тонн, к 2030 году планируется достичь 750 миллионов тонн»¹, что необходимо внедрить в практику технические средства и вооружение, обеспечивающие уборку картофеля с высокой производительностью и качеством и низким расходом топлива. Исходя из этого, важно освоить производство машин с качественными, технически и технологически совершенными, энергосберегающими и энергосберегающими рабочими органами и использовать их при уборке картофеля.

Сегодня во всем мире проводятся научно-исследовательские работы, направленные на совершенствование высокоэффективных, в малой степени повреждающих картофелей, ресурсосберегающих методов и технических средств уборки картофеля. В частности, особое внимание уделяется совершенствованию способов уборки картофеля, созданию машин с высокой эффективностью рабочих органов, обоснованию технологического процесса и параметров их работы.

В целях “выращивания потребительского и семенного картофеля на интегрированных полях на основе инновационных и ресурсосберегающих технологий, также создания цепочки добавленной стоимости в отрасли, дальнейшего развития сельхозмашиностроения, полного развития процесса производства сельхозтехники, в нашей Республике реализуются комплексные мероприятия обеспечения аграрного сектора современной и дешевой сельскохозяйственной техникой, подходящей для природного климата и почвенных условий регионов”².

